

YANGI O'ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARINI AMALGA OSHIRISHNING

IJTIMOY-SIYOSIY, HUQUQIY ASOSLARI

Shokirov Mubin Rustamovich

f.f.f.d (PhD) dotsent, Buxoro davlat pedagogika instituti

Ergasheva Iroda Qosimovna

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

Telefon: +998(93) 624 42 07 ergasevairoda87@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14822944>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish va amalga oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar, ularning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslari hamda xalqaro standartlarga muvofiqligi tahlil qilinadi. Yangi O'zbekiston konsepsiysi doirasida qabul qilingan qonunlar, davlat siyosati hamda inson huquqlarini ta'minlashning innovatsion mexanizmlari o'r ganiladi. Shuningdek, mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan jamiyatni demokratlashtirish, ochiqlik va oshkoraliq, gender tengligi, inson qadri kabi tushunchalarning mazmun mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, inson huquqlari, demokratizatsiya, NNT, ommaviy axborot vositalari, xalqaro huquq, adolatli sudlovni kafolatlash, haqqoniylilik va adolat, inson sha'ni, itimoiy tenglik.

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РЕАЛИЗАЦИИ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В НОВОМ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. В данной статье анализируются реформы в области защиты и реализации прав человека в Новом Узбекистане, их социально-политические и правовые основы, их соответствие международным стандартам. Изучены законы, принятые в рамках концепции нового Узбекистана, государственная политика и инновационные механизмы обеспечения прав человека.

Также разъяснен смысл таких понятий, как демократизация общества, открытость и прозрачность, гендерное равенство, человеческое достоинство, направленных на защиту прав человека в нашей стране.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, права человека, демократизация, НПО, средства массовой информации, обеспечение справедливого суда, честности и справедливости, человеческого достоинства, социального равенства.

SOCIO-POLITICAL AND LEGAL BASIS OF IMPLEMENTATION OF HUMAN RIGHTS IN THE NEW UZBEKISTAN

Abstract. This article analyzes the reforms in the protection and implementation of human rights in New Uzbekistan, their socio-political and legal foundations, and their compliance with international standards. Laws adopted within the framework of the concept of new Uzbekistan, state policy and innovative mechanisms for ensuring human rights are studied.

Also, the meaning of concepts such as democratization of society, openness and transparency, gender equality, human dignity, aimed at protecting human rights in our country, has been explained.

Key words: New Uzbekistan, human rights, democratization, NGOs, mass media, employers, ensuring fair trial, honesty and justice, human dignity, social equality.

Kirish

Yangi O‘zbekiston deb ataluvchi taraqqiyot bosqichida inson huquqlarini ta’minlash va amalga oshirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon qadimiy tarix va milliy an’analarni chuqur o‘rganish, ulardan ilhomlanish orqali shakllanmoqda. Shu jumladan, qadimgi Avesto asari inson huquqlari masalasini chuqur o‘rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

"Avesto" – Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lib, qadimgi O‘zbekiston hududida shakllangan dunyoqarash, huquqiy va axloqiy me’yorlarni o‘zida mujassam etadi. Unda insonning erkinligi, haqqoniylig va adolat tamoyillari ulug‘lanadi.

Masalan: Haqqoniylig va adolat: Avestoda adolat asosiy tamoyil sifatida talqin qilinadi. Har bir insonning jamiyat oldidagi mas’uliyati va huquqlari muhim ekanligi ta’kidlanadi.

Tabiat va inson munosabatlari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, ekologik huquqlar haqida o‘sha davrda ilgari surilgan g‘oyalalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatiga ega, ya’ni Avestoda inson va tabiat bir butun hisoblanib, tabiiy resurslarni saqlash zarurligi targ‘ib etiladi.

Shuningdek, Avestoda insonning shaxsiy huquq va erkinliklariga alohida e’tibor berilgan bo‘lib, unda har bir insonning o‘z hayotini, e’tiqodini erkin tanlash huquqi qadrlanadi.

Mazkur kitobda ayollar huquqlarini himoya qilish va gender tenglikni ta’minlash, shu bilan birga erkak va ayol o‘rtasidagi muvozanat g‘oyalari alohida belgilab berilgan.

Demak, Yangi O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashda Avesto go‘alari muhim ustivor ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz taraqqiyoti va inson huquqlarini ta’minlashda **Qur’oni Karimning** o‘rnini beqiyos. Qur’oni Karimda inson huquqlari va erkinliklari masalasi ulkan ahamiyatga ega bo‘lib, ular adolat, tenglik, hurmat, va mas’uliyat kabi tamoyillar orqali ifodalangan.

Qur’onda adolatni barqaror qilish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, Allohning kalomida aytildi:

"Albatta, Alloh sizlarga omonatlarni o‘z egalariga topshirishni va odamlar o‘rtasida hukm qilganingizda adolat bilan hukm qilishni amr etadi" (Niso surasi, 58-oyat). Yangi O‘zbekistonda ham adolatli jamiyat barpo qilish, sud-huquq tizimini isloq qilish va inson huquqlarini qaror toptirishda ushbu mezonlarga alohida e’tibor berilgan.

Xususan, Qur’oni Karimda ilm olish barchaning burchi ekanligi, Zumar surasining 9-oyatida "Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo‘ladimi?"¹ deb ta’kidlanganligi Yangi O‘zbekiston ta’lim sohasida aholining bilim olishiga alohida e’tiborni qaratish lozimligini ta’kidlaydi.

Bugungi kunda Qur’oni Karimdagi inson huquqlariga oid tamoyillar Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga ma’naviy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bu esa mamlakatning barqaror va adolatli rivojlanishiga zamin yaratadi.

O‘zbekiston bugungi kunda inson huquqlarini ta’minalash borasida muayyan ishlar amalga oshirikdi. So‘nggi yillarda “Yangi O‘zbekiston” kontseptsiyasi doirasida inson huquqlarini kafolatlash bo‘yicha tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekistonda inson huquqlari himoyasi sohasidagi davlat siyosati, qabul qilingan qonunlar va xalqaro maydondagи hamkorlik masalalari tahlil qilinadi.

Bugungi kunda jamiyatimizda inson huquqlariga oid davlat siyosatini amalga oshirishda Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi va huquqiy islohotlar, davlat rahbariyati tomonidan inson huquqlari bo‘yicha qabul qilingan strategik hujjatlar, fuqarolik jamiyati institutlari va OAV ning inson huquqlarini himoya qilishda olib borilayotgan ishlari alohida ahamiyatga ega.

Yurtimizda inson huquqlari himoya qilish, adolat va erkinlikni qaror topdirishda quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarning o‘rnini beqiyos.

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- 2.O‘zbekiston Respublikasining “Inson huquqlari bo‘yicha Milliy strategiyasi”;
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ombudsman to‘g‘risida”gi qonuni;
4. Mehnat, gender tenglik va so‘z erkinligi bo‘yicha qabul qilingan qonunlar va boshqa qonun osti hujjatlar.

Mazkur huquqiy hujjatlar xalqaro inson huquqlari bo‘yicha standartlarga mos bo‘lib, bular xalqaro hamkorlik va inson huquqlari bo‘yicha xalqaro majburiyatlarni, O‘zbekistonning BMTning inson huquqlari bo‘yicha organlari² bilan hamkorligini, Yevropa Ittifoqi, YXHT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikni, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro konvensiyalar va O‘zbekistonning ulardagi ishtirokini ta’minalaydi.

¹ Qarang¹ Shayx Abdulaziz Mansur Qur’oni Karim. Toshkent 2021-yil. “Sano-Standart” Zumar surasi 9-oyat.

² Qarang² BMTning inson huquqlari qo‘mitasining O‘zbekistonga doir hisobotlari (<https://www.ohchr.org/>)

Ayni damda yurtimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bilan birga quyidagi muammo va kamchiliklar ham ko'zga tashlanmoqda.

1. Sud-huquq tizimidagi kamchiliklar;
2. Korrupsiya muammosi;
3. OAV va so'z erkinligi masalasi.

Xulosa qilib aytganda Yangi O'zbekistonda inson huquqlarini amalga oshirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslarini ta'minlashda so'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar va xalqaro hamkorlik doirasida inson huquqlari borasida sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, hali bartaraf qilinishi lozim bo'lgan bir qator muammolar mavjud.

Kelajakda davlat va fuqarolik jamiyat o'zaro hamkorlikda inson huquqlari himoyasini yanada mustahkamlash yo'lida birgalikda harakat qilishlari lozim.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – 8-dekabr, 1992-yil (2023-yilgi tahrir).
2. A.Saidov. "Inson huquqlari xalqaro huquqning tarkibiy qismi sifatida", T.: Adolat, 2019.
3. A.Jo'rayev A. "Demokratik jamiyat va inson huquqlari", T.: Fan, 2020-yil.
4. Q.Xudoyberganov. "Inson huquqlari va ularning himoya mexanizmlari", T.: O'zbekiston, 2021-yil. 63-bet.
5. G'.Qosimova. "Yangi O'zbekistonda huquqiy islohotlar va inson huquqlari", T.: Huquq, 2022-yil.
6. Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) tomonidan e'lon qilingan O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha ma'ruzalar.

Internet saytlari

7. BMT Inson huquqlari qo'mitasining O'zbekistonga doir hisobotlari (<https://www.ohchr.org/>)
8. O'zbekiston Respublikasi Ombudsmanining yillik hisobotlari (<https://ombudsman.uz/>).
9. Freedom House tashkilotining O'zbekiston bo'yicha hisobotlari (<https://freedomhouse.org/>).